

O'T O'CHIRUVCHILAR KIYIMINI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONA LOYIHASI**Xomidov Voxidjon Obidovich****Farg'ona davlat texnika universiteti****Yengil sanoat muhandisligi kafedrası dotsenti(Phd)****Muxtorova Gulnoza Odiljon qizi****Farg'ona Davlat texnika universiteti,****M30-24 guruh magistranti****e-mail gulnozamuxtorova275@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17569352>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o't o'chiruvchilar kiyimini ishlab chiqaruvchi korxona loyihasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jilet, sovutuvchi, tola, mato.

Аннотация: В данной статье представлена информация о проекте предприятия по производству одежды для пожарных.

Ключевые слова: проект, предприятие, мастерская.

Abstract: This article provides information about a project for a firefighter clothing manufacturing enterprise.

Key words: loyiha, korxona, sex.

O'zbekiston Respublikasi yong'in xavfsizligi tizimini mustahkamlashda maxsus himoya kiyimlari ishlab chiqarish strategik ahamiyatga ega. Ayni paytda o't o'chiruvchilar kiyimlariga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda, ammo bu sohada import mahsulotlar ulushi yuqori. Shu sababli mahalliy xomashyo va texnologiyalar asosida o't o'chiruvchilar uchun sifatli, xalqaro standartlarga javob beruvchi kiyimlar ishlab chiqaruvchi "FireProtect Farg'ona" MCHJ korxonasini tashkil etish taklif etiladi. Korxonaning asosiy maqsadi: Yong'inga chidamli, issiqlikni izolyatsiyalovchi, suv va kimyoviy ta'sirlarga bardoshli maxsus kiyimlar ishlab chiqarish orqali ichki bozorni to'ldirish va eksport salohiyatini oshirishdir.

Korxonani loyihalashda quydagilarga ahamiyat berishimiz zarur:

Ushbu kiyim turi o't o'chiruvchilar kiyimi bo'lganligi uchun uni oddiy kiyimlardan ko'ra mukammalroq qilib loyihalash boshqacha aytganda tikib chiqish zarur hisoblanadi.

Biz korxonani loyihalashimizda quydagilarni ham inobatga olgan holda ishlashimiz zarur bo'ladi:

Korxonaning joylashuvi juda muxim hisoblanadi. Chunki maxsulotning tannarxiga ta'sir qilmasligi uchun u har taraflama qulay joyda joylashgan bo'lishi juda muxim ahamiyat kasb etadi.

Korxonaning chiqindi yoki uning kanalizatsiyasini inobatga olgan holda loyihalash. Chunki bu holat tabiatga ta'sir qilmasligi kerak.

Yoriqlik darajasini bu holat maxsulotiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Chunki u yetarli darajada yorug bo'lmasa u insonning salomatligi hamda maxsulot sifatini buzilishiga olib keladi.

Favqulotda holatlar uchun maxsus yo'laklar bilan (joylar) bilan ta'minlanga bo'lishi kerak.

Korxonaning loyihalashiga yana boshqa tomonlarini ham ko'rib chiqamiz . Chunki korxonamiz 5 ta bo'limdan iborat bo'ladi.

- Tayorlo'v bo'limi
- Bichuv bo'limi
- Tikuv bo'limi
- Sifat nazorati
- Pardoqlash hamda ombor.

Ushbu bo'limlarning joylashuviga ham muxim ahamiyat kasb qiladi. Bularga misol qilib oladigan bo'lsak: Tikuv bo'limi bu bo'limda maydoning yuzasini bo'lib olishimiz, model ishlab chiqarishimiz hamda unga kerakli mashinalar bo'lishi, qaysi usuldagi oqimda ishlatishimiz va yo'laklarni me'yorlashtirishimiz zarur bo'ladi.

Yoqoridagi holatlarni inobatga olgan holda biz o't o'chiruvchilar kiyimini ishlab chiqaruvchi korxonanining 4 ta holat loyihasini misoliy tarzda ko'rib chiqamiz.

1. Korxona nomi "FireProtect Farg'ona" MCHJ joylashuvi Farg'ona viloyati, Quvasoy sanoat zonasi. Ushbu zonani tanlashimizning asosiy maqsadi, Ushbu sanoat zonasi joylashuvi avtomobil qatnovi, ishchilarning ishga o'z vaqtida yetib kelaolishi va uylariga yetkazishida transport harajatlarining kamligi hamda maxsulot ishlab chiqarish uchun homashyoni yetkazish uchun sarflanadigan harajatlarining kamligi inobatga olindi.

2. Korxonaning shamollar guldastasi ushbu sanoat hududiga mosligi ko'rib chiqildi. Korxona joylashuvi ishlab chiqarishga ta'sir etmasligi kerak.

3. Yoruqlik darajasi ushbu joyda yetarlicha ekanligi yani elektr energiyadan muammo bo'lmasligi ko'rib chiqildi.

4. Tanlangan hudud favqulotda holatlar talablarigamos holda tashkillanishi nazarda tutilgan.

Korxonaning maydoni hamda sexlarning joylashuvini ko'rib chiqamiz;

Korxona aytib o'tkanimizdek 4 ta asosiy bo'limdan va qo'shimcha bo'limlardan ya'ni oshxona xojatxona, qorovul honalar va boshqalardan iborat.

- Tayo'rlov bo'limi bu bo'lim maxsulot ushuncha kerakli hom ashyolarni qabul qilish, maxsulot uchun kerak bo'ladigan matolarni sifatini nazorat qilish va uni saqlashdan iborat bo'ladi. Ushbu bo'limda qilinadigan ishlarga kerak bo'ladigan maxsus javonlar, maxsulotni tajribaviy ishlab chiqarish va boshqalar uchun yetarlicha maydon ajratilganligini ko'rib chiqildi. O't o'chiruvchilar kiyimi uchunmisoliy to'shamalar to'shash uchun stol o'lchami taxminiy 2 x 6 m. Umumiy maydon 12m²


- Bichuv bo'limi bu bo'limda maxsulotlarni bichishga tayorlash va uni bichish ishlari olib boriladi. Bichishdan oldin matolarni to'shab olish zarur bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun bizdan bichuv stoli talab qilinadi. Bichuv stollari 2 x 6 m. Umumiy maydon 12 m²

- Tikuv bo'limi bu bo'limda maxsulotlar tikiladi. Bu bo'lim asosiy ishlab chiqarish bo'lganligini inobatga olsak, maydoni boshqa sexlarning maydoniga nisbatan ancha katta olinadi. Uning umumiy maydon 108 m²

- Sifat nazorati bo'limi bu bo'limda tikib tayyor bo'lgan maxsulotning sifati tekshiriladi. Misol uchun: Maxsulotning berilgan standartga muvofiqligi tekshirib chiqiladi. Chok turi razmerlari va boshqa nuqsonlarni yoqligi ergonomik, estetik hamda eksplutatsion talablarini inobatga olgan holda sifat nazorat qilib o'tiladi. Bu bo'limning eni qanday maxsulot ishlab chiqarilishi hamda unda qanday asbob- uskuna yoki mashinadan foydalanishiga qarab hona razmeri olinadi.

- Namlab isitib ishlash va ombor bu bo'limda maxsulotni so'ngi pardoqlash ishlari olib boriladida so'ngra omborda uni bozorga olib ketgunga qadar saqlanib turiladi. 2 ta dazmol taxmini 70 x 120 m. Bu bo'limlarning eni press yoki dazmolning o'lchami hamda omborda maxsulotni qanday usullarda saqlashiga bog'liq bo'ladi.

Quyidagi rasim orqali sexning joylashuvini ko'rib olishingiz mumkin bo'ladi:



1-rasm Sexning joylashuvi

Bu sexning planini chizishda yuqoridagi 5ta Korxonaning joylashuvi bila birga oshxona hamda hojatxonani sexning ichida joylashgan bo'lib. Bunday joylashma bizga quydagicha qulaylik beradi: ishchilarning vaqtini yo'lda o'tkazmaslik va ularning smenasidan unumli foydalanish, ya'ni ishning to'xtab qolishini oldini olish uchun mo'ljallangan.

Ishlab chiqarish oqimlarni tashkil qilishning shakllari asosan to'rt belgi bilan farqlanadi: 1- bir maromda ishlash darajasi bo'yicha 2 - tikuv buyumlarini ishlab chiqarish oqimlarga tushirish bo'yicha, 3 - mahsulotni tashish usuli bo'yicha, 4 - tashkiliy operatsiyalarni vaqtini moslash bo'yicha. Biz loyihalagan sexda esa 1- chi bo'limga moslangan. Yana ham tushunarlisi bir maromda kanveyir usulda ishlab chiqariladi. Har bir ishni sifatini oshirish hamda tannarxini kamaytirish maqsadida shunday usul tanlab olingan. Boshqacha qilib aytkada aniq bir maromga amal qilingan holda har bir maxsulotlar ishlab chiqariladi.

Xulosa

Ushbu maqolada o't o'chiruvchilarning kiyimini ishlab chiqaruvchi korxonaning misoliy plani ishlab chiqilgan. Ushbu korxonada jami 18 nafar ishchi bo'lib u bir smena davomidagi quvvati 250 ta. Shu bilan birgalikda korxonani qurish ya'ni loyihalashda ahamiyat beriladigan muxum omillari ko'rib chiqildi. Bugungi rivojlanayotkan mamlakatlarda bularni bilish hamda sexning bo'limlarini to'g'ri joylashtirish muxum ahamiyat kasb etadi. Har taraflama to'g'ri joylashtirilgan korxona ishning sifatiga hamda uning vaqtini zoye ketkazmaslikka xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnatni saqlash to'g'risidagi Qonuni.
2. GOST EN 469:2015 – "Yong'in himoya uchun himoya kiyimlari".
3. A. Ahmedov, Ishlab chiqarish jarayonlari texnologiyasi, Toshkent, 2022.

4. www.fvv.uz— Favqulodda idora rasmiy sayti.
5. Xalqaro xavfsizlik uskunalari assotsiatsiyasi (ISEA) Himoya kiyimlari standartlari, 2024 yil.